TIJORAT BANKLARIDA DEBITORLIK QARZLARI HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ("XALQ BANKI" ATB MISOLIDA)

"Xalq banki" ATB Bo'stonliq BXM
Chakana Biznes bo'limi yetakchi mutaxassisi
Nazirov Suxrob Ilyos o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida debitorlik qarzlarini hisobga olish va audit qilish tizimini takomillashtirish, ularning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash hamda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda debitorlik qarzlarini International Financial Reporting Standards (IFRS) talablariga muvofiq ravishda qayta shakllantirish, risklarni oldindan aniqlash, undirish ko'rsatkichlarini oshirish hamda hisobotlarda shaffoflikni ta'minlash mexanizmlari chuqur tahlil qilingan.

"Xalq banki" ATB misolida debitorlik qarzlarini boshqarish va audit qilish amaliyoti o'rganilib, ularning bankning moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: debitorlik qarzlari, audit, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, raqamli monitoring, "Xalq banki" ATB.

Annotation: This acticle examines the issues of improving the accounting and auditing system of accounts receivable in commercial banks, assessing their impact on financial stability, and developing scientifically grounded recommendations. The study analyzes mechanisms for restructuring accounts receivable in accordance with the International Financial Reporting Standards (IFRS), identifying risks in advance, improving collection indicators, and ensuring transparency in financial reporting.The practical experience of "Xalq banki" ATB has been studied to evaluate how accounts receivable management and audit affect the bank's financial stability, reliability, and profitability.

Keywords: accounts receivable, audit, commercial banks, financial stability, risk management, digital monitoring, "Xalq banki" ATB

Kirish

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi

Tijorat banklari O'zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash, xo'jalik subyektlari va aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, bank faoliyatining shaffofligi va barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Banklar faoliyatida debitorlik qarzlarini samarali hisobga olish va ularning auditini to'g'ri tashkil etish moliyaviy barqarorlikning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonlar nafaqat bankning o'ziga xos moliyaviy holatini

mustahkamlash, balki butun bank tizimining ishonchliligi, ochiqligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli tijorat banklari faoliyatida debitorlik qarzlarini hisobga olish va ularning auditini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda bank-moliya tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimlarini shakllantirish yo‘nalishida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, tijorat banklarida debitorlik qarzlarini boshqarish, ularni tahlil qilish, risklarni erta aniqlash va nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Bu esa qarzdorlikning o‘z vaqtida undirilishini ta’minlash, moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish hamda banklarning likvidligini mustahkamlashga xizmat qiladi.


Tadqiqotning asosiy maqsadi — O‘zbekistondagi tijorat banklarida, xususan “Xalq banki” ATB misolida debitorlik qarzlarini hisobga olish va audit qilish tizimining amaldagi holatini chuqur tahlil qilish, xalqaro standartlar (IFRS va ISA)ga mos kelmaydigan jihatlarni aniqlash, ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy mexanizmlarni taklif etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar ko‘zda tutiladi. Nazariy asoslarni o‘rganish. Tijorat banklarida debitorlik qarzlarining mohiyati, ularning iqtisodiy ahamiyati, tasnifi va moliyaviy tizimdagi o‘rni bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va Xalqaro auditorlik standartlari (ISA) doirasida debitorlik qarzlarini hisobga olish va audit qilish tamoyillarini o‘rganish. Amaldagi holatni baholash. “Xalq banki” misolida debitorlik qarzlarini hisobga olish va audit qilishning amaliy tizimini o‘rganish. Kredit portfeli tarkibi, qarzdorlik dinamikasi, qaytarilish ko‘rsatkichlari va zaxiralar shakllantirish mexanizmini tahlil qilish. Ichki va tashqi audit amaliyotini baholash, risklarni boshqarishdagi mavjud bo‘shliqlarni aniqlash.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari o‘z moliyaviy va operatsion faoliyatini amalga oshirish jarayonida kreditlash, investitsion operatsiyalar va mijozlar bilan hisob-kitoblar natijasida turli moliyaviy risklar va majburiyatlarga duch keladi. Aynan debitorlik qarzlari ushbu risklarning muhim tarkibiy qismini tashkil etib, bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va aktivlar sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Debitorlik qarzlarining to‘g‘ri hisobga olinmasligi yoki ularning sifatsiz audit qilinishi moliyaviy natijalarning buzilishiga, kredit portfelining sifatsizlanishiga hamda bankning ishonchlilik darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, debitorlik qarzlarini samarali boshqarish bank faoliyatining eng muhim moliyaviy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, bu jarayonning nazariy asoslari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), Basel qo‘mitasi

tavsiyalari va xalqaro auditorlik standartlari (ISA)da aniq belgilangan. Xususan, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS 9)ga ko‘ra, debitorlik qarzlarini hisobga olish jarayonida kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (ECL)ni aniqlash, aktivlarni toifalarga ajratish va ularning qiymatini qayta ko‘rib borish talab etiladi. Bu esa qarzdorlik risklarini erta bosqichda aniqlash va moliyaviy ko‘rsatkichlarni real holatda aks ettirish imkonini beradi. Shuningdek, ilmiy manbalarda qayd etilishicha, debitorlik qarzlarini hisobga olish tizimida yuzaga keladigan muammolar — noto‘g‘ri tasniflash, kredit sifatining yetarli monitoring qilinmasligi, qarzdorlikning kechiktirilgan bahosi, auditning yetarli darajada chuqur emasligi — bankning moliyaviy intizomi va strategik barqarorligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Shu sababli, ko‘plab xorijiy tadqiqotlarda debitorlik qarzlari nazoratini risk asosida yondashuv orqali tashkil etish, ichki auditni mustahkamlash va real vaqt rejimida monitoring qilishga urg‘u beriladi. Debitorlik qarzlarini hisobga olishning nazariy jihatlari. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayon aktivlarni tan olish, tasniflash, baholash va ularni qayta ko‘rib borish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Debitorlik qarzlarini hisobga olishda moliyaviy aktivlarni aniqlash, risklarni baholash (ECL modeli orqali), qarzdorlikning amortizatsiya jarayonlarini belgilash, aktivlarni real qiymatda aks ettirish kabi bosqichlar mavjud. Bu yondashuv xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos bo‘lib, banklarning moliyaviy shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.



METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi — O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida debitorlik qarzlarini hisobga olish va audit tizimini ilmiy asosda tahlil qilish, mavjud jarayonlarni takomillashtirish hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Shu maqsadda tadqiqotda aralash tadqiqot dizayni (mixed-method design) qo‘llanilib, nazariy va empirik usullar uyg‘un holda tatbiq etiladi.

Tadqiqot yo‘nalishi. Tadqiqotda “Xalq banki” ATB amaliy tajribasi asosida debitorlik qarzlarini hisobga olish jarayonining hozirgi holati, nazorat va audit tizimlarining samaradorlik darajasi hamda ularning bankning moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro va milliy tajribalar asosida debitorlik hisobini takomillashtirishga doir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashda debitorlik qarzlari hisobi va auditi alohida strategik ahamiyatga ega. Kreditlar portfeli bankning asosiy daromad manbai bo‘lishi bilan birga, eng katta moliyaviy xatar manbai ham hisoblanadi. Shu bois, kreditlar (debitorlik qarzlari) ustidan to‘g‘ri buxgalteriya hisobi yuritish, ularni nazorat qilish va muntazam auditdan o‘tkazish jarayoni xalqaro bank amaliyotida moliyaviy barqarorlikning asosi sifatida qaraladi. O‘zbekistonda, xususan “Xalq banki” ATB misolida olib borilgan amaliy tahlillar ushbu yo‘nalishda muhim jihatlarni ko‘rsatadi. Avvalo, debitorlik qarzlarini hisobga olish amaldagi tizimi kredit portfeli tuzilmasi, kredit turlari, muddatlar va garov ta’minotiga asoslangan holda yuritiladi. Kredit berish bosqichida shartnomalar, garov shartlari, to‘lov grafigi va foiz stavkalari rasmiylashtiriladi, buxgalteriya tizimida avtomatik yozuvlar shakllantiriladi. Har bir qarz bo‘yicha to‘lov intizomi kuzatib boriladi, muddati o‘tgan qarzlar esa 30, 60 va 90 kunlik kechikishlarga ko‘ra tasniflanadi. Shunga mos ravishda qarzlar Stage 1, Stage 2 va Stage 3 toifalariga ajratiladi. Bu yondashuv xalqaro buxgalteriya standartlari — IFRS 9 talablariga mosdir. Aynan ushbu tasnif asosida kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (ECL) uchun zarur rezervlar shakllantiriladi.

Kredit portfelining amaldagi tuzilmasi ATB“Xalq banki” misolida shuni ko‘rsatadiki, kreditlarning sezilarli qismi qishloq xo‘jaligi sektori, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga yo‘naltirilgan. So‘nggi yillarda jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar ulushi ortib bormoqda. Portfelning katta qismi qisqa va o‘rta muddatli kreditlardan iborat bo‘lib, bu likvidlik xavfini kamaytiradi, biroq monitoringni yanada kuchaytirishni talab qiladi.

Muammoli kreditlar (NPL) ulushi esa hali ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda, bu esa undirish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Debitorlik qarzlari tuzilmasi (ATB “Xalq banki” kredt portfeli bo‘yicha)

Qarzdorlik turi	Hisobvaraq kodi	Ulushi (%)	Asosiy yo‘nalish	Izoh
Qisqa muddatli kreditlar	22100	42 %	Mikroqarzlar	Eng katta ulush
Uzoq muddatli kreditlar	22200	30 %	Investitsion loyihalar	Katta miqdordagi kreditlar
Shubhali kreditlar	22900	18 %	To‘lov intizomi buzilgan qarzlar	Riskli segment
Boshqa qarzdorliklar	24000	3 %	Hisob-kitob va xizmat ko‘rsatish	Kam ulushli segment

Muallif ishlanmasi

Tijorat banklarida debitorlik qarzlari hisobi moliyaviy faoliyatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning shaffofligi va ishonchliligi bevosita bankning moliyaviy barqarorligi, aktivlar sifati hamda kredit risklarini boshqarish samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun debitorlik qarzlari hisobi ustidan ichki va tashqi auditni puxta tashkil etish bank tizimida ustuvor ahamiyatga ega. “Xalq banki” ATB misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, audit tizimi kreditning barcha bosqichlarini qamrab olgan holda — kredit ajratishdan to uning to‘liq undirilishigacha bo‘lgan jarayonni nazorat qiladi. Bu nafaqat buxgalteriya yozuvlarining to‘g‘riligini ta’minlaydi, balki kredit risklari bo‘yicha boshqaruv qarorlarining sifatini ham oshiradi. “Xalq banki” ATB tajribasi shuni ko‘rsatadiki, debitorlik qarzlari hisobi auditining puxta tashkil etilishi bank faoliyatida shaffoflikni oshiradi, moliyaviy intizomni mustahkamlaydi va kredit risklarini samarali boshqarishga yordam beradi.

2-jadval

“Xalq banki” ATBning 2021–2024 yillar davomida moliyaviy faoliyat ko‘rsatkichlari (trln.so’m hisobida)

№	Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024
1	Umumiy aktivlar (mlrd so‘m)	19 500	21 300	23 600	25 900
2	Kredit portfeli (mlrd so‘m)	12 500	13 800	15 200	17 100
3	Debitorlik qarzlari (mlrd so‘m)	1 350	1 580	1 820	2 100
4	Foiz daromadlari (mlrd so‘m)	980	1 150	1 330	1 520
5	Foyda (mlrd so‘m)	210	265	305	350
6	Likvidlik koeffitsienti (%)	29.5	31.0	33.2	34.7
7	NPL — muammoli kreditlar ulushi (%)	6.2	5.8	5.4	5.0

Muallif ishlanmasi

Aktivlar va kredit portfeli. Bankning umumiy aktivlari 2021-yildagi 19,5 trln so‘mdan 2024-yilda 25,9 trln so‘mgacha oshgan. Kredit portfeli ham shunga

mutanosib tarzda o‘sib, 12,5 trln so‘mdan 17,1 trln so‘mgacha yetgan. Bu bankning moliyaviy resurslar bazasi kengayayotganini ko‘rsatadi. Debitorlik qarzlari. Debitorlik qarzlari hajmi 4 yil ichida 1,35 trln so‘mdan 2,1 trln so‘mgacha o‘sib, 55 foizlik ko‘rsatkichni tashkil etdi. Bu bankning kreditlash hajmi oshganini anglatadi, biroq bu bilan birga qarzdorlik risklarini samarali boshqarish zarurati ham kuchayadi. Daromad va foyda ko‘rsatkichlari. Foiz daromadlari 980 mlrd so‘mdan 1,52 trln so‘mgacha o‘sib, bankning rentabelligi oshganini ko‘rsatmoqda. Sof foyda esa 210 mlrd so‘mdan 350 mlrd so‘mgacha oshgan — bu barqaror moliyaviy boshqaruv va kredit siyosatining samaradorligidan dalolat beradi. Likvidlik darajasi. Likvidlik koeffitsienti 29,5 % dan 34,7 % gacha ko‘tarilgan bo‘lib, bu bankning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyati kuchayganini bildiradi. Muammoli kreditlar (NPL). Muammoli kreditlar ulushi 6,2 % dan 5,0 % gacha pasaygan. Bu qarzdorlikni nazorat qilish tizimi yaxshilanganini, risklarni kamaytirishga qaratilgan strategiyalar samarali ishlayotganini ko‘rsatadi. 2021–2024 yillar davomida “Xalq banki” ATBning moliyaviy ko‘rsatkichlarida barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Aktivlar va kredit portfeli kengaygan, daromad va foyda oshgan, likvidlik darajasi yaxshilangan, muammoli kreditlar esa kamaygan. Bu bankning moliyaviy boshqaruv tizimi, kredit siyosati va risk nazorati mexanizmlari samarali ishlayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, debitorlik portfelining o‘sishi risklarni oldindan aniqlash va audit tizimini kuchaytirishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Xalq banki” ATBda debitorlik qarzlarini hisobga olish ko‘proq balans ko‘rsatkichlari — ya’ni qarzdorlik summasi, muddati va to‘lov intizomi kesimida yuritilmoqda. Biroq, xalqaro standartlar talablariga muvofiq ravishda qarzdorlikning risk darajasi, likvidlik ko‘rsatkichlari, kechiktirilgan to‘lovlar, undirish koeffitsienti va aktivlar aylanish tezligini chuqur tahlil qilish amaliyoti yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan. Bu holat IFRS doirasida talab etiladigan shaffoflik, taqqoslanuvchanlik va risklarni boshqarishning samaradorligini cheklab qo‘ymoqda. Natijada, investorlar va tartibga soluvchi organlar uchun zarur bo‘lgan tahliliy axborot yetarli darajada shakllantirilmayapti.

Tijorat banklari faoliyatida debitorlik qarzlarini samarali boshqarish va audit tizimini takomillashtirish uchun IFRS talablari asosida yondashuvlarni joriy etish zarur. “Xalq banki” ATB misolida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlarga mos hisob yuritish, KPI va byudjetlashtirish tizimlarini integratsiya qilish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, shaffoflikni oshiradi, risklarni samarali boshqarish imkonini beradi, uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. Debitorlik qarzlarini boshqarishda raqamlashtirish, ichki auditni kuchaytirish va xalqaro standartlarni to‘liq tatbiq etish orqali O‘zbekiston tijorat banklari moliyaviy tizimining barqarorligi va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

“Xalq banki” tajribasida ishlab chiqilgan ushbu tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan samarali yechimlar sifatida qaraladi.

Bankda KPI tizimining ayrim elementlari mavjud bo‘lsa-da, ularning to‘liq joriy qilinmagani sababli ishlab chiqilgan yondashuvni amaliyotga to‘liq tatbiq etish imkoniyati chegaralandi.

“Xalq banki” ATB misolida ishlab chiqilgan yondashuvlar O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotiga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy va barqaror boshqaruv modeli sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Q.H.Berdiyev. Hususiy Kapitalning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish masalalari / Monografiya. Qarshi. “Intellekt” nashriyoti, 2023.-146 bet.

2. Ahmed, R. (2021). Risk Analysis in Commercial Banking. Journal of Financial Auditing, 27(4), pp. 120–135.

3. Kyiu, A. va Tawiah, V. (2025). IFRS 9 implementation and bank risk. Accounting Forum, 49(1), 234-258.

4. Bley, J., Saad, M. va Samet, A. (2019). Auditor choice and bank risk taking. International Review of Financial Analysis, 61, 37-52.

5. Hoelscher, J., Reed, B.J. va Sierra, G.E. (2019). The effect of insured liabilities on the demand for external audits: The case of privately-held United States banks. J. of Corporate Accounting & Finance, 30(3), 8-19.

6. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; — T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b.

7. Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S. Banklarda buxgalteriya hisobi (Matn|: o ‘quv qo‘llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.

8. Z.A.Umarov. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). --T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b